MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 9
Erkayev Akrom Normuxammadovich
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY 16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi
O‘ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH 34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH 40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o‘g‘li
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI 44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH 52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi
TEMIR YO‘L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH 60
Botirov Abdulaziz Temir o‘g‘li
QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘IDA NOL STAVKANI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 66
A.A. Bobomurodov
KERAMIKA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA) 71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL 76
Berdiyorov Shohjahon, Khayitova Fayoza
O‘ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA’SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL 85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna
ISHLAB CHIQARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO‘NALISHLARINI BAHOLASH 93
Salimov Burxoniddin
OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI 98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o‘g‘li
CHUQUR O‘RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O‘ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH 105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH 111
Almanov Ilhom Sultonovich

TIBBIY XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 118
O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li
TIBBIY XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 118
O‘roqov Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li
EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN ISHLAB CHIQARISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI 125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI 130
Jumaev Sohib Baxodirovich
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMI 136
Palvonova Sevara Baxromovna
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI 141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ..... 148
Мўминжонов Анварбек Сайфитдин угли
NOQISHLOQ XO‘JALIGINING TOMORQA XO‘JALIGI FAOLIYATIGA TA’SIRINI BAHOLASHDA ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR 156
Nurullayev Ulug‘bek
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI 161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI 166
Xamroyeva Sitora Otabekovna
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ. 172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур
SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO‘LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH 185
Turayeva Nafisa Odiljonovna
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO‘RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI 190
Mulayev Farxod Alisherovich
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI 195
Abdixakimova Malika Amir qizi
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA’LIM TRANSFORMATSIYASI 207
Nazarov Baxrom Mustafayevich
O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 213
Qahramonova Maftuna Davronovna

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna
KO‘P FAKTORLI AUTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEXANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH 227
Babakulov Bekzod Mamatkulov
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO‘RSATISH TARMOG’INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI 234
Nasrullayev Feruz
SOLIQDAN BO‘YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 238
Ismailov Bobir Salomovich
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ.. 245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохида
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIK 250
Sh. Qurbonova
XULQ-ATVORGA ASOSLANGAN SUG‘URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG‘URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O‘RNI VA AHAMIYATI 265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO‘SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA 269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER 277
Rajapbayev Umidjon Alisher o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 283
Azizova Maliha Farrux qizi
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODELI 290
Azamiddin Quldashev
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 295
Jo‘rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur
BYUDJET YO‘QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING) 301
Jasur Nurmatov

BYUDJET YO‘QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING)

Jasur Nurmatov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
jasur.nematov@mail.ru

Abstract. The article analyzes the public procurement transaction cycle — from needs identification to treasury payment — using the process mapping method and localizes budget losses at specific stages of the process. Unlike the “legal violation/corruption” approach prevailing in the local literature, the study emphasizes passive losses arising from bureaucratic inefficiency without criminal intent. The process established by the Law of the Republic of Uzbekistan “On Public Procurement” (Law No. O‘RQ-684) is divided into seven stages, and for each stage, the mechanism of passive waste, its determinant (according to the $C = M + D - A$ model), and an observable red-flag indicator based on open data are identified. As a result, a theoretical and methodological framework is proposed for the early detection of budget losses in public procurement.

Keywords: public procurement, process mapping, passive waste, budget loss, red-flag indicators, preventive control, transaction cycle, Law No. O‘RQ-684.

Annotatsiya. Maqolada davlat xaridlari transaksion sikli — ehtiyojni shakllantirishdan g‘azna to‘loviga qadar — jarayonli xaritalash (*process mapping*) usuli asosida tahlil qilinadi va byudjet yo‘qotishlari jarayonning aniq bosqichlariga lokalizatsiya qilinadi. Mahalliy adabiyotda hukmron bo‘lgan “qonunbuzarlik/korrupsiya” yondashuvidan farqli o‘laroq, tadqiqotda yo‘qotishning passiv — jinoiy niyatsiz, byurokratik samarasizlik natijasida yuzaga keladigan — ko‘rinishiga urg‘u beriladi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-684-son) belgilagan jarayon yetti bosqichga ajratilib, har bir bosqichda passiv isrof mexanizmi, uning determinanti ($C = M + D - A$ modeli bo‘yicha) hamda ochiq ma’lumotlar asosida kuzatiladigan *red-flag* indikatori aniqlanadi. Natijada davlat xaridlari sohasida byudjet yo‘qotishlarini erta aniqlashga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik skelet taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, jarayonli xaritalash, passiv isrof, byudjet yo‘qotishi, *red-flag* indikatorlari, preventiv nazorat, transaksion sikl, O‘RQ-684.

Аннотация. В статье транзакционный цикл государственных закупок — от формирования потребности до казначейского платежа — анализируется на основе метода процессного картирования (*process mapping*), а бюджетные потери локализуются по конкретным этапам процесса. В отличие от преобладающего в отечественной литературе подхода, основанного на категориях «нарушение законодательства/коррупция», в исследовании особое внимание уделяется пассивным потерям, возникающим вследствие бюрократической неэффективности при отсутствии преступного умысла. Процесс, установленный Законом Республики Узбекистан «О государственных закупках» (№ O‘RQ-684), разделён на семь этапов, и на каждом из них определяются механизм пассивных потерь, его детерминанта (в соответствии с моделью $C = M + D - A$), а также наблюдаемый на основе открытых данных индикатор риска (*red flag*). В результате предлагается теоретико-методологическая основа для раннего выявления бюджетных потерь в сфере государственных закупок.

Ключевые слова: государственные закупки, процессное картирование, пассивные потери, бюджетные потери, индикаторы риска (*red flags*), превентивный контроль, транзакционный цикл, O‘RQ-684.

KIRISH

Davlat xaridlari davlat byudjeti xarajatlarining eng katta va eng ko‘p xatarga moyil oqimlaridan biri hisoblanadi; xalqaro baholarga ko‘ra, xaridlardagi yo‘qotishlar sarflangan mablag‘ning sezilarli ulushini tashkil etadi. O‘zbekistonda davlat xaridlari 2022-yildan boshlab majburiy elektron shaklga o‘tkazilgani nazorat uchun ulkan ochiq ma’lumotlar bazasini yaratdi. Biroq amaldagi moliyaviy nazorat, asosan, post-faktum xususiyatga ega — u natijani, ya’ni allaqachon amalga oshirilgan xarid va to‘lovni tekshiradi. Byudjet yo‘qotishi esa aksariyat hollarda jarayonning ancha oldingi bosqichlarida — ehtiyoj noto‘g‘ri shakllantirilganda, boshlang‘ich narx yuqori


belgilanganda yoki xarid usuli asossiz tanlanganda — shakllanadi. Shu bois yo‘qotishni faqat yakuniy natijada emas, balki u yuzaga keladigan aniq nuqtada aniqlash zarurati kelib chiqadi.

Ushbu muammoni hal etish uchun tadqiqotda jarayonli xaritalash (*process mapping*) usuli qo‘llaniladi: xarid sikli ketma-ket bosqichlarga ajratilib, har bir bosqich alohida tahlil obyekti sifatida ko‘riladi. Bunda tadqiqotning asosiy konseptual siljishi shundan iboratki, e’tibor faqat aktiv isrofga (qasddan qilingan qonunbuzarlik, xufyona kelishuv, korrupsiya) emas, balki passiv isrofga — hech qanday jinoiy niyatsiz, byurokratik malakasizlik, zaif rejalashtirish va jarayon dizaynidagi bo‘shliqlar natijasida davlat mablag‘ining samarasiz sarflanishiga — qaratiladi. Empirik dalillar davlat sarflaridagi isrofning asosiy qismi aynan passiv tabiatga ega ekanini ko‘rsatadi, biroq bu yo‘nalish mahalliy nazorat amaliyoti va adabiyotida hali yetarli darajada qamrab olinmagan.

Maqolaning maqsadi — O‘RQ-684 belgilagan real xarid jarayonini bosqichma-bosqich xaritalash va har bir bosqichda passiv byudjet yo‘qotishi shakllanadigan nuqta hamda unga mos, ochiq ma’lumotlar orqali kuzatiladigan *red-flag* indikatorini lokalizatsiya qilishdan iborat. Bu xarita, bir tomondan, keyingi institutsional tahlil (nazorat organlari mandatlaridagi funksional vakuumni aniqlash) uchun, ikkinchi tomondan, risk-skoring modelini qurish uchun tayanch skelet vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlaridagi yo‘qotishlarni tushuntirishda ikkita yirik nazariy yo‘nalish mavjud. Birinchisi — isrofning tabiati bo‘yicha tasnif. Bandiera, Prat va Valletti (2009) davlat sarflaridagi isrofni aktiv (mansabdorga shaxsiy naf keltiruvchi, korrupsion) va passiv (hech kimga naf keltirmaydigan, malakasizlik va samarasizlik oqibatidagi) turlarga ajratadi hamda passiv isrof ulushining sezilarli darajada ustunligini empirik jihatdan asoslaydi (1-rasm). Bu tasnif tadqiqotning markaziy linzasini tashkil etadi. Ikkinchi yo‘nalish — yo‘qotishning determinantlari bo‘yicha tahlil. Klitgaard (1988) taklif etgan $C = M + D - A$ formulasi (Korrupsiya = Monopoliya + Diskretsiya − Hisobdorlik) yo‘qotishning tarkibiy sabablarini ajratishga imkon beradi va ushbu maqolada har bir jarayon bosqichini determinant bo‘yicha izohlash uchun qo‘llaniladi.



1-rasm. Aktiv va passiv isrof ulushi (Bandiera, Prat va Valletti, 2009).

Alohida jarayon bosqichlariga oid xorijiy adabiyot boy tajriba to‘plagan. Byudjet yilining oxiridagi shoshilinch sarflar (“use-it-or-lose-it” sindromi) va ularning isrofga olib kelishi Liebman va Mahoney (2017) tomonidan federal xaridlar misolida empirik asoslangan: muddati tugayotgan byudjetlar yil oxirida sifat jihatidan pastroq xaridlar to‘lqinini keltirib chiqaradi. Raqobatni cheklovchi amaliyotlar — xaridni chegaradan past qismlarga bo‘lish (*bid splitting*) va yagona ishtirokchili savdolar (*single-bidding*) — xalqaro metodologiyalarda byudjet yo‘qotishining asosiy *red-flag* indikatorlari sifatida e’tirof etilgan. Shartnoma ijrosidagi keyingi o‘zgartirishlar (*change orders*) va dastlabki hamda yakuniy qiymat o‘rtasidagi og‘ish ham xatar indikatori sifatida hujjatlashtirilgan.

Mahalliy adabiyot va amaliyotda davlat xaridlari ko‘proq huquqiy-jinoiy jihatdan — sodir etilgan qonunbuzarlik va korrupsiya faktlari nuqtai nazaridan — tahlil qilinadi. Bunday yondashuvni yanada rivojlantirish, birinchidan, yo‘qotishning passiv (jinoiy bo‘lmagan) qismini ham qamrab olishga; ikkinchidan, yo‘qotishni jarayonning aniq bosqichlari bilan bog‘lashga imkon beradi. Aynan shu ikki yo‘nalish ushbu maqolaning ilmiy o‘rnini belgilaydi:

transaksion siklni jarayonli xaritalash orqali passiv isrofni bosqichma-bosqich lokalizatsiya qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini jarayonli xaritalash (*process mapping*) tashkil etadi — bu boshqaruv va nazorat fanida jarayonni ketma-ket bosqichlarga ajratib, har bir bosqichdagi kirish, chiqish, mas'ul ishtirokchi va xatar nuqtalarini vizual tarzda tavsiflash usulidir. Yondashuv COSO ichki nazorat konsepsiyasining nazorat tadbirlari jarayonlar ichiga o'rnatilishi kerakligi haqidagi tamoyiliga mos keladi: nazorat natijani emas, balki jarayonni kuzatganda samaraliroq bo'ladi.

Jarayon xaritasining normativ-huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-684-son, 2021-yil 22-aprel) va uning asosida amalga oshiriladigan xarid tartib-taomillari olindi. Qonunga muvofiq, eng yaxshi taklifni tanlash va tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, yillik xarid rejalari esa maxsus axborot portaliga joylashtiriladi. Xarid usullari qatoriga elektron do'kon, eng yaxshi taklifni tanlash, tender hamda to'g'ridan-to'g'ri (yagona yetkazib beruvchi bilan) shartnoma kiradi.

Tadqiqotning muhim metodologik cheklovi — reproduksiyalanuvchanlik (*reproducibility*) tamoyili: barcha xulosalar faqat ochiq va tekshirilishi mumkin bo'lgan manbalarga (qonun matni, xarid.uzex.uz portalidagi ochiq ma'lumotlar, PEFA va boshqa xalqaro baholash hisobotlari) tayanadi. Nazorat organlarining ichki, xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlari va aniq ish materiallaridan foydalanilmaydi. Bu cheklov nafaqat maxfiylik talabini, balki xalqaro ilmiy nashrlarning tekshirilishi mumkin bo'lgan dalillarga doir talabini ham qondiradi; tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, terminologik izchillikni ta'minlash va maqola matnini texnik jihatdan tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.

Xaritalash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: (1) transaksion sikl O'RQ-684 mantig'i asosida yetti bosqichga va uch fazaga (*pre-tender, tender, post-tender*) ajratiladi; (2) har bir bosqichda passiv isrof mexanizmi aniqlanadi; (3) mexanizm $C = M + D - A$ modeli (Korrupsiya = Monopoliya + Diskretsiya − Hisobdorlik) bo'yicha determinantga bog'lanadi; (4) har bir bosqichga ochiq ma'lumotlar orqali o'lchanadigan *red-flag* indikatori biriktiriladi. Ushbu to'rt bosqichli protsedura keyingi bo'limda bayon etiladigan jarayon xaritasi va lokalizatsiya matritsasini hosil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlari transaksion siklining jarayon xaritasi

O'RQ-684 belgilagan xarid tartibi mantiqan uzluksiz transaksion sikl sifatida qaraladi va tahlil qulayligi uchun yetti bosqichga hamda uch fazaga ajratiladi (1-rasm).

A-faza — Pre-tender (ehtiyojni shakllantirish). Bu faza to'rt bosqichni qamrab oladi: (1) ehtiyojni aniqlash va yillik xarid rejasini shakllantirish — reja maxsus axborot portaliga joylashtiriladi; (2) moliyalashtirish manbasi va byudjet mablag'ini tasdiqlash; (3) texnik topshiriq (spetsifikatsiya) hamda boshlang'ich (maksimal) narxni belgilash; (4) xarid usulini tanlash (elektron do'kon, eng yaxshi taklifni tanlash, tender yoki to'g'ridan-to'g'ri shartnoma). Aynan shu faza tadqiqotning markaziy **e'tibor nuqtasidir**: byudjet yo'qotishlarining aksariyat qismi qaror hali qog'ozda, savdo boshlanmasdan turib shakllanadi, biroq ushbu fazada nazorat qamrovini yanada kuchaytirish imkoniyati mavjud.

B-faza — Tender (savdo protsedurasi). Ikki bosqichni o'z ichiga oladi: (5) e'lon berish va takliflarni qabul qilish; (6) takliflarni baholash va g'olibni aniqlash. Bu faza eng ko'p hujjatlashtirilgan va portalda eng shaffof fazalardan biri bo'lib, shu bois *red-flag* indikatorlarini o'lchash uchun boy ochiq ma'lumot manbai hisoblanadi.

C-faza — Post-tender (ijro va to'lov). Yakuniy bosqich (7) shartnoma tuzish, ijro/yetkazib berish, qabul qilish va g'azna orqali to'lovni birlashtiradi. Yo'qotish bu yerda ikki nuqtada yuzaga keladi: ijro bosqichida (shartnoma o'zgartirishlari orqali qiymat oshishi) va to'lov bosqichida (to'lov intizomining buzilishi).



2-rasm. Davlat xaridlari transaksion siklining jarayon xaritasi (7 bosqich, 3 faza).

Uch fazaning ketma-ketligi keyingi bo‘limda har bir bosqichni passiv isrof mexanizmi, determinanti va *red-flag* indikatori bo‘yicha “rentgen qilish” uchun asos bo‘ladi.

Byudjet yo‘qotishlarining bosqichma-bosqich lokalizatsiyasi

Jarayon xaritasining har bir bosqichi passiv isrof mexanizmi, $C = M + D - A$ determinanti va ochiq ma’lumotlar orqali kuzatiladigan *red-flag* indikatoriga bog‘lanadi (1-jadval). Yakuniy (7-) bosqichda *red-flag* ikki qismga — ijro (7a) va to‘lov (7b)ga — ajratiladi.

1-jadval. Xarid transaksion siklida byudjet yo‘qotishlarining lokalizatsiya matritsasi


#	Bosqich (faza)	Passiv-isrof mexanizmi		Red-flag indikatori (ochiq ma’lumot)
1	Ehtiyoj/reja (pre-tender)	Zaif rejalashtirish; ehtiyojni ortiqcha yoki noaniq belgilash	D	Reja vs amaldagi xarid og‘ishi; rejaga kech kirituvlar
2	Byudjet/moliyalashtirish (pre-tender)	“Yil oxirigacha o‘zlashtirish” bosimi → shoshilinch, sifatsiz xarid	A	IV chorak / dekabrda xarid hajmi konsentratsiyasi
3	Spetsifikatsiya va boshlang‘ich narx (pre-tender)	Boshlang‘ich narxni bozordan yuqori yoki eskirgan baza asosida belgilash	D	Boshlang‘ich narx vs bozor/oldingi shartnoma og‘ishi
4	Usulni tanlash (pre-tender)	Asossiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid; lotni chegaradan qochish uchun bo‘lish (splitting)	M	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar ulushi; chegara ostidagi bo‘linishlar
5	E’lon va takliflar (tender)	Qisqa muddat, torlashtirilgan spetsifikatsiya → kam ishtirokchi	M	Yagona ishtirokchi (single-bidding); o‘rtacha ishtirokchi soni
6	Baholash va g‘olib (tender)	Baholash mezonining noaniqligi, subyektivlik	D	Baholash muddati anomaliyasi; shikoyatlar soni
7	Shartnoma–ijro–to‘lov (post-tender)	Ijroda hajm/narx oshishi; to‘lov intizomining buzilishi	A	7a. Dastlabki vs yakuniy qiymat og‘ishi (variance); 7b. Kechiktirilgan yoki muddatidan oldingi to‘lov anomaliyasi

Matritsaning har bir katagi quyidagicha izohlanadi. **Birinchi bosqichda** yo‘qotish rejalashtirishning zaifligidan boshlanadi: ehtiyoj asossiz yoki ortiqcha belgilansa, keyingi barcha bosqichlar allaqachon isrofga sozlangan bo‘ladi; buni reja va amaldagi xarid o‘rtasidagi og‘ish orqali kuzatish mumkin. **Ikkinchi bosqich** passiv isrofning eng yorqin misolidir: muddati tugayotgan byudjetni “yo‘qotmaslik” uchun yil oxirida shoshilinch sarflash sifatning pasayishiga olib keladi — bu naqsh federal xaridlar misolida empirik asoslangan va uni yil choraklari bo‘yicha xaridlar konsentratsiyasi orqali o‘lchash mumkin. **Uchinchi bosqichda** boshlang‘ich narxning bozordan yuqori belgilanishi ko‘pincha jinoiy niyatdan emas, malakasizlik yoki eskirgan narx bazasidan kelib chiqadi, biroq natija bir xil — byudjet yo‘qotishi.

To‘rtinchi va beshinchi bosqichlar raqobat determinantiga (*M*) tegishli: raqobatli usul o‘rniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridga asossiz o‘tish, xaridni chegaradan past qismlarga bo‘lish (*splitting*) hamda qisqa muddat va torlashtirilgan spetsifikatsiya orqali ishtirokchilar sonini kamaytirish — bularning barchasi xalqaro metodologiyalarda byudjet yo‘qotishining asosiy *red-flag* indikatorlari sifatida e’tirof etilgan. **Oltinchi bosqichda** baholash mezonlarining noaniqligi diskretsiyani (*D*) oshiradi va sifatsiz g‘olib tanlanishiga sharoit yaratadi.

Yettinchi bosqichda yo‘qotish ikki yo‘nalishda yuzaga keladi: ijroda shartnoma o‘zgartirishlari (*change orders*) orqali dastlabki qiymatning oshishi — bu 7a indikatori bilan (dastlabki va yakuniy qiymat o‘rtasidagi og‘ish); to‘lovda esa intizom buzilishi, ya’ni kechiktirilgan to‘lovlar (*arrears*) yoki muddatidan oldingi to‘lov — bu 7b indikatori bilan kuzatiladi; kechiktirilgan to‘lovlar PEFA metodologiyasida byudjet intizomi va fiskal xatar ko‘rsatkichi sifatida baholanadi.


Matritsaning tahlili muhim tuzilmaviy xulosani beradi: yetti bosqichdagi yo‘qotish nuqtalarining determinant bo‘yicha taqsimoti bir tekis emas — diskretsiya (*D*) uch nuqtada (1, 3, 6-bosqichlar), monopoliya/renta (*M*) va hisobdorlik yetishmovchiligi (*A*) ikkitadan nuqtada (mos ravishda 4, 5 va 2, 7-bosqichlar) namoyon bo‘ladi (2-rasm). Bu shuni ko‘rsatadiki, davlat xaridlaridagi passiv isrofni kamaytirishning eng samarali yo‘nalishi — mansabdorning diskretsion erkinligini jarayonning aynan pre-tender fazasida cheklovchi, jarayon ichiga o‘rnatilgan preventiv nazorat mexanizmlaridir.



Manba: muallif tahlili (1-jadval asosida).

3-rasm. Yo‘qotish nuqtalarining determinant bo‘yicha taqsimoti (C = M + D − A).

Aynan shu yerda tadqiqotning asosiy tezisi vizuallashtiriladi (*3-rasm*): agar nazorat post-faktum nuqtadan (7-bosqichdan keyin) jarayonning oldingi bosqichlariga — har bir katakdagi red-flag indikatorini real vaqt rejimida kuzatuvchi nuqtaga — siljitilsa, yo‘qotish sodir bo‘lgach qayd etilishdan uning oldini olishga o‘tiladi.



4-rasm. Nazorat nuqtasining post-faktumdan preventivga siljishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davlat xaridlari transaksion siklini jarayonli xaritalash orqali byudjet yo‘qotishlarini jarayonning aniq bosqichlariga lokalizatsiya qildi va quyidagi natijalarni berdi. Birinchidan, yo‘qotishning asosiy qismi aktiv (korrupsion) emas, passiv (byurokratik samarasizlik) tabiatiga ega bo‘lib, u savdo boshlanmasdan oldin, pre-tender fazasida shakllanadi; demak, post-faktum nazorat bilan bir qatorda, ushbu bosqichlarda preventiv nazorat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, yetti bosqichning har biri aniq passiv isrof mexanizmi, determinanti va ochiq ma’lumotlar orqali o‘lchanadigan *red-flag* indikatoriga ega bo‘lib, bu indikatorlar birgalikda yo‘qotishni erta aniqlash tizimining o‘lchov skeletini tashkil etadi. Uchinchidan, yo‘qotish

nuqtalarining determinant bo‘yicha taqsimoti diskretsiyaning ustunligini ko‘rsatib, preventiv nazoratni pretender fazasiga siljitish zaruratini asoslaydi.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: moliyaviy nazorat e’tiborini yakuniy to‘lov bilan bir qatorda xarid siklining boshlang‘ich bosqichlariga ham qaratish; har bir bosqichdagi *red-flag* indikatorini portalning ochiq ma’lumotlari asosida avtomatik kuzatiladigan o‘lchovga aylantirish; hamda yil oxiridagi xaridlar konsentratsiyasi, *single-bidding* va shartnoma qiymati og‘ishi kabi indikatorlarni ustuvor kuzatuv ro‘yxatiga kiritish.

Ushbu jarayon xaritasi ikki yo‘nalishda davom ettiriladi: u nazorat organlari mandatlarida funksional muvofiqlashtirishni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlovchi institutsional tahlil uchun skelet bo‘ladi (keyingi tadqiqot) hamda risk-skoring modelining nazariy poydevori vazifasini bajaradi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni: 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, LexUZ. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 27.08.2026. **Rasmiy manba:** LexUZ — O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun

2. Bandiera O., Prat A., Valletti T. Active and passive waste in government spending: Evidence from a policy experiment // *American Economic Review*. – 2009. – Vol. 99, No. 4. – P. 1278–1308. – DOI: 10.1257/aer.99.4.1278.

3. Bosio E. Reducing corruption in public procurement [Elektron resurs] // *World Bank Blogs*. – 2021. – 17 August. – Murojaat sanasi: 27.08.2026.

4. Decarolis F., Giorgiantonio C. Corruption red flags in public procurement: New evidence from Italian calls for tenders // *EPJ Data Science*. – 2022. – Vol. 11. – Art. 16. – DOI: 10.1140/epjds/s13688-022-00325-x.

5. Klitgaard R. *Controlling Corruption*. – Berkeley: University of California Press, 1988. – 230 p.

6. Liebman J. B., Mahoney N. Do expiring budgets lead to wasteful year-end spending? Evidence from federal procurement // *American Economic Review*. – 2017. – Vol. 107, No. 11. – P. 3510–3549. – DOI: 10.1257/aer.20131296.

7. Open Contracting Partnership. *Red Flags in Public Procurement: A Guide to Using Data to Detect and Mitigate Risks* [Elektron resurs]. – 2024. – Murojaat sanasi: 27.08.2026.

8. PEFA. *PEFA 2016: Framework for Assessing Public Financial Management*. – Washington, DC: PEFA Secretariat, 2016. – Elektron resurs. – Murojaat sanasi: 27.08.2026.

9. Vahobov A. V., Qosimova G. A. *Davlat moliyasini boshqarish*: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008. – 259 b. – ISBN 978-9943-13-061-6.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100